UO‘K: 821.512.133

POLVON OBRAZINI YARATISHDA FOLKLOR MOTIVLARINING RIVOJLANTIRILISHI

M.J. Ismonaliyeva

Maqolada hozirgi o‘zbek nasrida polvon obrazini yaratishda folklor motivlarining ta’siri yoritilgan. Xalq dostonlari qahramonlarining sifatlari, syujet tizimi motivlari, personajlar va asardagi boshqa holatlarning polvon obrazini shakllantirishdagi o‘rni atroflicha ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, qahramonlik eposlaridagi “alplik tizimi” va polvon obrazining jamiyatga ijtimoiy-psixologik ta’siri hamda ma’naviy-axloqiy olamining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *qahramonlik sifatlari, syujet motivlari, yolg‘on motivi, olib qochish motivi, pir obrazi, alplik tizimi, alplik dardi.*

В статье освещается влияние фольклорных мотивов на создание образа борца (“палвана”) в современной узбекской прозе. Подробно рассматривается место личных качеств героев, мотивов сюжетной системы, персонажей и других обстоятельств народного эпоса в формировании образа борца. Также анализируется социально-психологическое воздействие на общество “системы богатырства” и образа борца в героических эпосах и взаимозависимость духовно-нравственного мира.

Ключевые слова: *героические качества, сюжетные мотивы, ложный мотив, мотив побега, образ пира (старца), система богатырства, скорбь богатырства.*

Xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan xususiyatlar yozma adabiyotga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Buni, avvalo, ijodkorning ana shu xalqning ongli vakili hamda millat qadriyatlarining davomchisi ekanligi bilan izohlash mumkin. Nasrimizda polvon obrazining shakllanishida ham folklor motivlarining ta’siri sezilarlidir, qahramonlik dostonlarining umurtqasi sanaluvchi “alplik tizimi” (Sh.Turdimov)dagi qahramon sifatlari (halol, mard, dovyurak, oriyatli va.h. – M.I.) polvon obrazining ham muhim hayotiy e’tiqodiga aylantirilgan. Polvon obrazini yaratishda folklor motivlari ijodkorning badiiy niyati, voqealar rivojidan kelib chiqqan holda o‘zgarishlarga uchraydi hamda realistik tamoyillar asosida talqin etiladi. Motivlar rivojini *qahramon sifatlari, syujet tizimi, personajlar va asardagi boshqa holatlardagi* turli o‘xshashliklarda kuzatish mumkin. Quyida ularni ko‘rib o‘tamiz.

Folklor motivlarining birinchi ta’siri *qahramon sifatlari*, uning xarakter xususiyatlarida ko‘rinadi. Xalq og‘zaki ijodi qahramonlari, asosan, tilab olingan yoki yagona farzand bo‘lib (“Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Rustamxon”), oila va millat taqdiri uning hayotiga chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Polvon obrazi talqin etilgan ko‘plab asarlarda ham ular oilaning yolg‘iz farzandi va ota-onaning bor umidi ana shu farzandidan bo‘ladi. Said Ahmadning “Qirq besh kun” romanida Azizxon, Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida Bo‘ri polvon obrazlarini yaratishda ushbu motivning sezilarli ta’siri kuzatiladi. “Qirq besh kun”da Azizxon bir necha o‘rinlarda “hali yosh bola” deb ta’riflangani holda, uning ota-onasiga nisbatan *chol, kampir* izohlarining qo‘llanganligi Azizxonning “oilada uzoq kutilgan farzand” bo‘lganligini anglatadi. Ummatalining “Axir sen peshanamda bittaginamsan. Biron kor-hol bo‘lsa onang ham, men ham adoyi tamom bo‘lamiz” [1. B. 108], – deb Azizxonni kanal qurilishidan ketishga undashida otaning o‘g‘iliga bo‘lgan munosabati anglashilib tursa, “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida “ona qabriga qo‘yilgan marmartosh” voqeasi orqali ona hayotida yolg‘iz o‘g‘il – Bo‘ri polvonning ahamiyati yoritiladi: “Onasi rahmatlik bir umr loy tomda yashadi. Bir umr tuproq yerda yashadi. Endi esa... bosh-adog‘i marmar bo‘ldi! Bo‘ri polvon o‘ylab o‘yiga yetolmadi: bu ishni kim qildi? Onasi rahmatlikning Bo‘ri polvondan o‘zga o‘g‘li-da

bo‘lmadi, qizi-da bo‘lmadi. Marmar sag‘anani bo‘lsa, faqat farzand qo‘yadi!” [2. B. 65].

Xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xosliklaridan biri qahramonlarning afsonaviy *kuch-qudratga ega* ekanligidir. Ular oddiy inson qo‘lidan kelmaydigan ishlarni amalga oshiradilar, bu holat ularning sohib eranlar, chiltonlar homiyligida tug‘ilganligi va yashashi bilan izohlanadi. Masalan, “Alpomish” dostoni qahramonlarining dunyoga kelishi uchun Shohimardon piri homiylik qiladi: “Shohimardon piri Boybo‘rining o‘g‘lining otini Hakimbek qo‘ydi, o‘ng kiftiga besh qo‘lini urdi. Besh qo‘lning o‘rni dog‘ bo‘lib, besh panjaning o‘rni bilinib qoldi” [3. B. 14]. Go‘ro‘g‘li turkumidagi doston qahramonlarini esa Hazrati Xizr buva tarbiyat qiladi: “...Badbaxt belining ustida oldindan yetmish ikki balosi to‘sib chiqa berdi. Shunda Go‘ro‘g‘li sulton bu sirni ko‘rib, Xizr bobosiga sig‘inib, bir so‘z dedi” [4. B. 17]. “Qirq besh kun” romanida ham muallif Azizxon obrazini xalq ijodining afsonaviy qahramonlariga qiyoslashga intiladi: “...ko‘ziga u allaqanday afsonaviy pahlavonlarga o‘xshab ko‘rinadi. “Afsonaviy pahlavon” nihoyatda ochiqqan ekan, choyni qaynoqligicha xo‘rillatib ichar, bir burda nonni bir yamlab yutardi” [1. B. 37]. Azizxoning kanal qurilishidagi mardona harakatlari orqali muallif kitobxon tasavvurida sevgan insonining xalqi uchun tog‘dan suv chiqarayotgan Farhod timsolini jonlantirishga intiladi: “Qo‘shiq tog‘ qaziyotgan Farhod sha’niga aytilgan Shirinning yurak dardlari edi. Azizxon xijolatlikdan qizarib ketgan, bu qo‘shiq, bu obro‘ uni chinakamiga mast qilgandi” [1. B. 93]. Polvon obrazini shakllantirish, ularning xarakter xususiyatlari, “*polvonlarning ma’naviy-e’tiqodiy dunyosi”*ni ochib berishda, xalq og‘zaki ijodi qahramonlarining sifatlariga yondashuv kuchli. Umuman olganda, xalqimizda polvonlar deyilganda jismoniy kuch-qudrat timsollarigina emas, balki el hurmatini qozongan, o‘z o‘rni va so‘ziga ega bo‘lgan insonlar nazarda tutiladi. *Polvon* leksemasi xalq dostonlarida qahramonlar nomiga eng ko‘p qo‘shib ishlatilgan sifat bo‘lib, o‘zbek nasrida badiiy talqin etilayotgan polvon obrazi xalq eposidagi *pahlavonlarning* mardligi va shijoatini o‘ziga tabiiy ravishda meros qilib olgan insonlardir. Albatta, ular epos yoki ertak qahramonlari kabi fantastik ishlarni amalga oshirmaydilar, ammo ularning alplik sifatlarini o‘zlarining ma’naviy kodeksi darajasiga ko‘targanlar. Misol uchun, “Xon Dalli” dostonida Hasanxonning bir o‘zi o‘ng ming askarli qo‘shin bilan jang qiladi, aytuvchi uning shijoatini asl polvonlik deya ta’riflaydi:

Menam polvon, senam polvon,
Polvonlik qil alvon-alvon,
Qo‘lingni ol, botir o‘g‘lon,
Er bo‘lsang kel yakka-yakka! [5. B. 92]

Shuningdek, ushbu dostonda Avazxonning botirliklari “*asli mard, har yerda ishi mard bo‘lar*” deya baholanadi. Polvon obrazi talqin etilgan har qanday asarda: kichik bir hikoya, qissa va yoki roman bo‘lmasin, ularda, albatta, mardlik, halollik tushunchalaridan bahs boradi, misol uchun A.Ayizovning “Polvon yig‘lagan tun” qissasida davrada nomardlik qilgan polvonning pushaymonlari keltiriladi: “– Hisob emas, chappa! Hoshim polvon tura solib, raqibining yoqasiga yopishdi. Bakovul uning qo‘lini Sardor polvonning yoqasidan ajratar ekan: – Yaxshimas, Hoshim polvon, buni kurash deydilar, mard bo‘lish kerak” [6. Б. 16].

Folklor namunalari va tahlildagi asarlarni qiyosiy o‘rganilganda epos qahramonlari xususiyatlari bilan polvon obrazi xarakteri o‘rtasidagi yaqinlik aks etgan ko‘plab o‘rinlarni ko‘rsatish mumkin. So‘zlashuv nutqida yoshi kichik bolalarni “polvon” deb erkalatish odat tusiga kirgan, bunda ana shu yigitning jismoniy barkamol bo‘lishi, ma’naviy yuksalishi bilan birgalikda xalq ongiga singib ketgan alpomishu, rustamlar haqidagi afsonalarga ham tabiiy ishora mavjud.

Badiiy kontekstda folklorga xos syujet motivlaridan qahramon taqdiri va harakatini asoslashda keng foydalaniladi. *Yolg‘on* motivi qahramonlar boshiga turli xil sinovlar, musibatlar keltirishi bilan birga, ularning taqdir yo‘lidagi o‘zgarishlarga ham turtki bo‘luvchi unsurdir. Masalan, “Rustamxon” dostonida Momogul mastonning yolg‘on xati Huroyim va uning o‘g‘li Rustamning o‘z yurtidan judo bo‘lishiga sabab bo‘lsa, “Shirin o‘ldi” degan yolg‘on xabar Farhodning foniy dunyodan voz kechishiga olib keladi. Yana bir misolni “Alpomish” dostonidan ko‘raylik:

Bir kecha bo‘layin senga xizmatkor,
Bir kechaga taom bermak haqim bor.
Olis yo‘ldan mehnat tortib kelasan,
Biznikiga bugun mehmon bo‘lasan,
Men enangman, sen-ku o‘g‘lim bo‘lasan
[3. B. 216].

Halok bo‘lgan o‘g‘illarining qasdini olish uchun Surxayil kampir o‘zini yolg‘ondan do‘st ko‘rsatib, Alpomish va uning navkarlarini yoqib yuboradi, o‘tda yonmas, qilich o‘tmas Alpomish esa yetti yil zindonda qolib ketadi. “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida Bo‘ri polvon eng yaqin do‘stining yolg‘oni tufayli sevgan insonidan ayriladi: “Momoqiz, Bo‘ri senga bir gap aytaman, deb yuribdi. – Bilaman, aytolmayapti. – Momoqiz, u menga ko‘nglini yordi, tayin ayt, dedi... – Yopirim, chini minan shunday dedimi? – Aldasam ko‘r bo‘layin. – Unda Bo‘rining betiga qaramaganim bo‘lsin. Betini murdashuy ko‘rsin!” [2. B. 28]. Ilk muhabbati armon bo‘lgan Bo‘ri polvon ichki dunyosida uzlatga beriladi, shu bilan birgalikda, bu yolg‘on qahramonlar taqdiridagi o‘zgarishlarga yo‘l ochib beradi.

Go‘ro‘g‘li turkumidagi dostonlarda *olib qochish* motivi yetakchilik qiladi. Qahramonlar faqat parilar yoki podshohzoda qizlarni (“Xon Dalli”, “Gulqizoy”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”) emas, ba’zan zuriyotsizlik tufayli bolalarni ham olib kelib tarbiyalay boshlaydilar (“Hasanxon”, “Avazxon”). “Qirq besh kun” romanida muallif Azizxonni afsonaviy pahlavonlarga qiyosan yaratishga intiladi. Azizxonning sevgan qizi Lutfinisani to‘y libosida olib qochib ketish tasvirini xalqona motivning zamonaviy nasrda qayta ishlangan ko‘rinishi deyish mumkin. Xalq dostonlarida ushbu motiv qahramonlarning murod-maqsadlariga yetishining so‘nggi bosqichi, romanda esa Azizxon va Lutfinisa taqdiridagi mashaqqatlarga boshlanmadir: “...qiz olib qochish allaqanday mardning ishi, deb bilgan Azizxon hozircha nochor edi. Xuddi o‘rgatilgan ayiqqa o‘xshab o‘rgatuvchisining qamchisini kutib turganga o‘xshardi” [1. B. 50]. Romanda ushbu motivning rivojlantirilishi muallifga qahramonning xarakter mantig‘ini isbotlashga hamda Azizxonda mehnat va sinovlar orqali asl polvonlikni shakllantirishga imkon bergan. Asarda qiz olib qochish voqeasi realistik ifoda etilsa-da, ammo uning mohiyatidagi xalqona motiv ta’sirini anglash mushkul emas. Bulardan tashqari xalq og‘zaki ijodida *bola boqib olish* motivi ham ko‘p uchraydi, polvon obrazi talqin etilgan asarlarning syujet tizimida ushbu motiv izlarini ham qo‘rishimiz mumkin, ammo voqealar, asosan, epizodik persojlar hayotida yoki qahramon taqdirini o‘zgartirib yuborish darajasida sodir bo‘lmagan. (L.Bo‘rixon “Quyosh hali botmagan”, A.Ayizov “Polvon yig‘lagan tun”).

Xalq og‘zaki ijodi an’analari yozma adabiy tafakkurga kuchli ta’sir o‘tkazadi, ya’ni folklorga xos personajlar, holatlar badiiy asar konsepsiyasini shakllantirishda o‘ziga xos vazifani o‘taydi.

Pir obrazi qahramonlik dostonlarida safarda yoki sinovda bo‘lgan pahlavonning eng mushkul vaziyatlarida yordamga keladi, qahramonlar biror muhim ishni boshlashdan oldin ham ulardan madad so‘raydi:

Boboxonda yig‘lab edi Qorajon,
Rajabxo‘ja piri etdi qoshiga.
Karomatman kelib xabar oladi,
Qorajonning qo‘lin chechib ko‘radi,
Qorajonni pir tarbiyat qiladi [3. B. 143].

Polvonlar o‘zlarini kurash maydonida yuzaga chiqarishadi, shu sababli davra ular uchun muqaddas joydir. Polvonlar ham kurash maydonidagi og‘ir vaziyatlarida, raqibining qo‘li baland kelayotgan pallada pirlardan yordam kutadi, ammo endi polvon pirlari ilohiy shaxslar bo‘lmay, o‘zidan oldin yashagan *bobosi*, *otasi* yoki *ustozini* o‘zlarining piri darajasiga ko‘taradilar: “Bo‘ri polvon o‘pkasini bosolmay, hamrohiga suyandi. O‘z ajdodlaridan madad so‘radi. Otasining piriga sig‘indi... Otaginam, oxirgi davramda meni bir qo‘llang. So‘nggi, so‘nggi bor qo‘llang, otaginam...” [2. B. 57–58]. Polvonlarning ustoz yoki bobo pirga sig‘ingan o‘rinlar ham ko‘p uchraydi, folklorda ilohiylik kasb etgan ushbu personajning oddiy inson qiyofasida tasavvur etilishida realistik adabiyot tamoyillarining ustivorligi namoyon bo‘ladi.

“Alpomish” dostonida Ko‘kaldosh alp bilan mujmal kurashayotgan Hakimbekka qarata Barchinoy shunday deydi:

Bu so‘zlarni Barchin suluv aytadi,
Barchinoyga navbat bergin, netadi,
Menday oyim ushlab ko‘kka otadi...,
Mardlar olishmaydi, siltab otadi [3. B. 164].

Barchinoyning bu so‘zlari qadimdan turkiy xalqlarda ayollarning ham kurash tusha olganliklarini, bu san’at sirlaridan nozik xilqat vakillarining xabardor bo‘lganligini anglatadi. Ushbu holatni zamonaviy nasrning bir necha namunalarida ham uchratish mumkin. Masalan, Said

Ahmadning “Jimjitlik” romanida panjikentlik bir ayol polvonning davrada barcha talabgorlarni sop qilganligi haqida kichik hikoya keltiriladi. Shuningdek, muallif turg‘unlikning jimjit – ko‘r, kar va soqov yillarida polvon nomiga xiyonat qilgan ba’zi bir “qiz polvonlar”ga qaratilgan nafratini ham ochiq ifoda etadi. N.Norqobilovning “Kurash” hikoyasi esa davrada nomardlik qilgan o‘g‘lini kurash tushib jazolagan ayol haqidadir: “Ushbu tug‘yonlar qayta bosh ko‘tararkan, momo yana kurash istadi..., polvonning davra aylanishlari ko‘z o‘ngida bir zumgina aks eti-da, qizligida so‘nggi bor aytgan o‘sha xitob bo‘g‘zidan ko‘chdi. – Yo-yo, pirim! O‘z xitobidan qulog‘i ochilib, ko‘zi ravshanlashgan Hamida momo o‘g‘lini oyoqlari ostida ko‘rdi” [7]. Voqealar rivojiga ayollar kurash sahnasining kiritilishi, retrospeksiya orqali eslanishi yoki ayol polvonlarga ishora berilishi ham muallifning davrada kurash qoidalariga amal qilmay, polvonlikning ma’naviy kodeksini buzgan nomard polvonga nisbatan qiyoslash munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Barchinning kanizak qizlari Alpomishni narmoda deb ataganlarida, alpdan kurash davrasini talab qilgan Barchinoyning xavotirlari ham ayni shu holatni badiiy ifoda etadi: “Qizlar sizni nar-moda deb ataydi, Qizlarni aytgani menga botadi” [7. B. 164].

Qadimdan o‘zbek xalqi to‘ylari kurash yoki uloq – ko‘pkarisiz o‘tmagan. To‘y egasi g‘oliblar uchun qimmatbaho sovg‘alar hozirlagan. Bu sovg‘alar *solim, taboq* yoki *sovrin* nomlari bilan atalgan. Ba’zan esa polvonlar bahsiga or-nomus masalasi sabab bo‘lib, bunda olinadigan mukofotning ahamiyati qolmaydi, o‘rtada muhabbat – ayol masalasi ko‘ndalang turadi. Qiziq tomoni esa bunday kurashlar natijasida odatda do‘stlar dushmanga, dushmanlar esa do‘stga aylanib qolishlari mumkin. Xalq og‘zaki ijodida Qalmoq yurtida to‘y-talashda qolgan Barchin o‘ziga talabgor bo‘lganlarga to‘rtta shart qo‘yadi, hal qiluvchi sinov – kurash esa eng oxirida o‘tkaziladi: “Kurashni ko‘ramiz. Toychixonning alpi bilan Qo‘ng‘irotdan kelgan o‘zbaklarning alpi kurash qiladi, kurash juda qiziq bo‘ladi, kurashda qaysisi zo‘rlik qilsa, o‘zbakning qizini oladi” [7. B. 158]. Zamonaviy nasrimizda Luqmon Bo‘rixon bahsga ayol sabab bo‘lgan kurash sahnasini “Quyosh hali botmagan” qissasida qayta ishlaydi. Bolalikdan do‘st bo‘lgan Norsoat va Davron bir qiz uchun bel olishadilar, natijada do‘stlar yuz-ko‘rmaslarga aylanadi: “Indin to‘y, kechki payt kurash. Kel, ikkovimiz masalani boshqacha hal qilamiz. – Qanday? – Ota-bobolarimiz an’anasi bo‘yicha hal qilamiz. Ikkovimiz kurashamiz. G‘olib Tanzilaga egalik qiladi [6. B. 14]. Qissada ota-bobolar an’anasi deya qadimgi epos voqelariga ishora qilingan, farqi Alpomish sinovlar tufayli bir umrlik do‘st – Qorajonni topadi, Norsoat bunday sinovdan keyin bir umrga do‘st tutingan insoni – Davrondan ayriladi.

Polvon obrazi talqinida adabiyotning didaktik funksiyasi faollashadi, ya’ni ijodkor polvonlarning jismoniy barkamollikka intilishi orqali shakllangan ma’naviy me’yorlarida o‘rnak bo‘la oladigan hayot materialini ko‘radi va uni badiiy talqin etishga intiladi. Masalan, manmanlik, kibr – dindan chiqaruvchi, avomdan ayiruvchi illat sifatida ikki tomonlama xulosalanadi. Didaktik ma’nodagi bu tushuncha asrlar davomida badiiy tafakkurga singib ulgurgan, folklor yoki yozma adabiyot namunalarida ushbu xulosaviy fikrdan shakllangan ko‘plab sahnalarni uchratish mumkin. Masalan, “Avazxon” dostonida “Go‘ro‘g‘li sultonning Chambildan chiqayotganidagi manmanligi uchun Badbaxt belining ustida oldindan Xudoning yetmish ikki balosi to‘sib chiqa berdi” [4. B. 17], deyiladi, “Dalli” dostonida esa Hasanxon o‘z jangidan kibrlangani uchun maydonda o‘qqa duchor bo‘ladi:

> Past ketmagay xon Hasanning iqboli,
> Yoronlar, kamlikning bordi kamoli,
> Man-manlik keb essiz mardning ko‘ngliga,
> Yoronlar, “man-man”ning bordir zavoli
> [5. B. 112].

“Quyosh hali botmagan” qissasida ham yosh polvonlar ustozi manman va kibrli shogirdining “Yurak noto‘g‘ri yo‘lga boshlasa-chi?” – degan savoliga, “Yurak noto‘g‘ri yo‘lga boshlasa, yo sening polvonliging, yo yuraging borligi o‘tirik”, – deya javob bergan edi. Qissada ustoz polvonning birgina javobi orqali polvonlikning ma’naviy tamoyillari hamda elda ushbu nomni olib yurishning mashaqqatlari yoritilgan. Polvon uchun kurash tushish o‘zini, o‘z “men”ini enga olish jarayonidir, polvonlar uchun davra shuning uchun muqaddas sanaladi: “Bo‘ri polvon yosh polvonga mensimay qaradi. “Yosh bola-ku! O‘ylab ish qilyaptimi? Yo, kayfi bormi?”... Bo‘ri polvon Ismoilni

ko‘zga ilmay davra aylandi. “Tayyor osh-ku”, – o‘zidan ketdi Bo‘ri polvon. Oqibat... Polvon nomini olgandan buyon birinchi marta yag‘rini yer ko‘rdi” [2. B. 51]. Badiiy adabiyotda har qanday obrazning o‘z salmog‘iga yarasha tortadigan yuki bor. Insondagi axloq, ma’naviyat, avvalo, bu – uning ichki muvozanati va ijtimoiylikka o‘tkazadigan ta’siridir. Polvonlarning kurash asnosida “o‘zini engib” erishilgan ma’naviy muvozanati ijodkorning jamiyatni axloqiy me’yorlashtirish maqsadiga xizmat qiladi.

“Alplik tizimi”dagi alp-qahramon sifatlari polvon obrazini shakllantirishga o‘z ta’sirini o‘tkazishi yuqorida aytib o‘tilgan edi. Folklorshunos Sh.Turdimov “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining tahlilida alplarning qat’iy o‘lchamlarini keltirib o‘tadi. Bu tizimdagi ba’zi o‘rinlar jahon adabiyotidagi mifologik qahramonlar xususiyatlari bilan o‘xshash bo‘lib, bu holatni adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial umumiylik bilan izohlash mumkin. Qahramonlik dostonlarida alpning “alplik dardi”ga yo‘liqish bosqichi uning yerdagi vazifasi-missiyasini belgilash bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, alp – xalqning quvvati mudrayotgan, omma inert (sust) holatga tushgan bir davrda uni kuchga endiruvchi o‘ziga xos “uyg‘otuvchi” sifatida paydo bo‘ladi [8. Б. 41]. Alpning o‘z xalqi yo‘lboshchisiga aylanishi, ommaga o‘tkazgan ijtimoiy-ma’naviy ta’siri masalasi alp va polvon obrazi o‘rtasidagi o‘xshashlikning yana bir o‘ziga xos tomonidir. Ya’ni alp o‘z elatining mavjud ijtimoiy holatidan norizo, u xalqini yangi taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun bel bog‘lagan qahramondir. Polvonlar ham jamiyatning axloqiy-ma’naviy tubanlashuvidan ruhiy azob chekayotgan, bu jamiyatda o‘z dunyosini pok saqlashga intilib, polvonlik falsafasi bilan atrofidagi insonlarga ta’sir o‘tkaza oladigan timsol sifatida namoyon bo‘ladi.

N.Norqobilovning “Qoyalar ham yig‘laydi” qissasi qahramoni Ernazar polvon o‘z avlodlarining nasliy sof bo‘lishi uchun qilgan harakatlari zamirida, avvalo, millat taqdiriga beparvo bo‘la olmaslik tushunchasi yotadi. Asarda milliy oila qadriyatlari ota va o‘g‘il munosabati orqali talqin etilgan. O‘z qishlog‘ida obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan Ernazar polvon zurriyotlarining mard, oriyatli insonlar bo‘lishini xohlaydi va buni ulardan talab etadi. U o‘z e’tiqodidan kelib chiqqan holda kurash va polvonlikni haqiqiy erkakni tarbiyalovchi vosita deb biladi: “O‘g‘il bola polvon bo‘lishi kerak, tamom-vassalom” [9. B. 299]. Asarda polvonlik falsafasi qahramon xarakter xususiyatlarini belgilashga to‘liq asos bo‘lgan. Ammo polvon shaxsi timsoliga konflikt tarzida yaratilgan yana bir qahramon Ernazar polvonning o‘rtancha o‘g‘li, xushsurat – O‘sar esa akalari kabi kurash tushmaydi. Bu hol tanlangan hayot materialidagi muammoni ochib berishga qaratilgan bir vosita, muallif undan qahramonlar xarakter mantig‘ini dalillashda foydalangan, ya’ni polvonlik asl insonlikka ko‘rsatkichdir: “Shu otash og‘ushida tomoshabinlar orasida iljayib turgan O‘sarga ro‘paro‘ bo‘ldi. – Er bo‘ldik-ku, tush davraga! – dedi. O‘sar talabgor kutib, davra bo‘ylab bamaylixotir aylanayotgan Turkman polvonning haybatli gavdasiga boqarkan, yo‘q, dedi. – Yigit bo‘p senam bir bel tutgin!... O‘sar bosh chayqab o‘zini ortga oldi-da, odamlar orasida ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi” [9. B. 312]. Ota o‘g‘ilining xush surat yuziga boqib uni “qizbet” deb atardi (Ul deganlari xarsangtoshday dag‘al bo‘lsayakan, qizbetdan polvon chiqarmidi). Otaning o‘g‘li kelajagi haqidagi ichki xavotirlari Ernazar polvon nomiga qora chaplashga payt poylab yuruvchi ba’zi odamlar tomonidan aytilgan shum xabar – O‘sarning axloqiy buzuq ekanligi bilan yuzalanadi: “– Agar bilsangiz, Ernazar polvonning qoni buzilibdi! – Ernazar polvon guvaladek mushti bilan tizzasi ko‘ziga tushirdi. – Qonim aynibdi mening! Buning kasri endi zurriyotlarimga uradi! Zaxa yegan shoximdan zaxa meva bitadi! Axir yomonlar-u, sharmsizlar osmondan tushmaydi-ku. Ulimga o‘xshagan nokaslardan paydo bo‘ladi-da. Kimsan Ernazar polvonning nevaralari...” [9. B. 363]. Naslining buloq suviday toza ekanligi bilan g‘ururlanib yuruvchi polvon o‘z zurriyotidagi axloqiy tubanlashuvni avlodlari kelajagi uchun fojia deb bildi va uning qarshisida chorasizlikdan larzaga tushadi. Qahramonning o‘z qo‘lidagi jonivorlar nasliga ham bee’tibor emasligini ta’kidlash orqali polvonning “temir” e’tiqodiga o‘quvchi ishontiriladi va keksa polvonning ruhiy muvozanatini buzgan nomaqbul o‘g‘il va ota kontrasti xayoliy jonlantira boriladi: “Jonlimi, jonsizmi – har narsaniyam asli yaxshi... Tabiiy, bola boboning falsafasini idrok etolmadi... – Ko‘ktoyingiz durustmidi?” [9. B. 306] Ernazar polvonning qo‘riqchi itlar zoti aynimasligi uchun nabirasi xush ko‘rgan xonaki itlarni otib yuborishi, ota tomonidan zino botqog‘iga

botgan o‘g‘ilning qonini tozalash maqsadida daraga boshlab borilishi va bu erda o‘g‘ilning fojiaga uchrab xarsang toshlar ostida halok bo‘lishi sahnalarida qahramonlarning qadriyatlarga bo‘lgan turli xil munosabatlari reallashgan: “Yo‘q, qoningni tozalamay turib, hech qayerga qochib qutulolmaysan! – Uf-f, yana “qon”, – O‘sarning jini battar qurishdi. – Ota, sizga nima bo‘lgan o‘zi-a? “Qon” deb na itlarga kun berasiz, na odamga rahm qilasiz. Birgina sizning harakatingiz bilan tirik jon tuzalib qolmaydi-ku axir... o‘g‘il na qilmishidan izza chekardi, na nasl tozaligi haqida qayg‘urardi” [9. B. 373]. Muallif polvondagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan e’tiqodni jamiyat kishilarining axloqiy sharmsizligiga zid qo‘ygan. Konfliktning bir oila a’zolari, ota va o‘g‘il o‘rtasida voqelanishi katta va kichik avlod o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik, axloqiy-estetik dunyoqarashdagi katta farqlilikni, jamiyatda milliy qadriyatlarning qadrsizlanishi va buning oqibatida yuzaga chiqqan illatlar ko‘rsatiladi. Shulardan biri oilaning ustuni sanalgan ota shaxsining oyoqosti qilinishidir: “Qachongacha tizginida yashaymiz? Har narsaniyam cheki-chegarasi bor. Etar endi. Boboy ko‘xnargan odam, fikriyam, yashash tarziyam eskirgan. U kishiga o‘xshab ahmoqona e’tiqodning etagini tutib yashay olmayman” [9. B. 374]. Bir oilada bir ota tarbiyasini olgan besh o‘g‘ildan birining razolatga botishi farzand tarbiyasida qattiqqo‘l va adolatli bo‘lgan keksa polvonni iztirobga soladi (Bu begona urug‘ qaysi go‘rdan mening bog‘imga tushib qoldi, a?) Bu sahnalar shaxsning ruhiy-ma’naviy kamolotida genetik omillar va oilalardagi individual tarbiya bilan birgalikda jamiyat va undagi kishilarning ta’siri ham sezilarli bo‘lishi, shu sababli millat taqdirida jamoaviy axloq muhim omil ekanligini ko‘rsatadi: “– Ota, siz gunoh deb bilgan narsani odamlar allaqachon gunoh deb bilmay qo‘ygan, – dedi O‘sar yuzini sidirib tashlab. – Kovakda yotaverib, dunyodan bexabar qolgansiz. O‘zingizdek, fikrlaringiz ham eskirgan. Har narsadan fojia yasamay, bunday tevarakka qarang, odamlar qanday yashayapti” [9. B. 372]. Ernazar polvonga o‘g‘li tomonidan ota deb murojaat etilsa-da, ayni o‘ringa kelib ota va farzand bahsigina emas, qahramonlar timsolida zamon va qadriyat, axloq va sharmsizlikning kurashini kuzatamiz. O‘g‘il tomonidan otaga tushirilgan musht – asrlik qadriyatlarga berilgan zarba, soniya o‘tmay behayo o‘g‘ilning qoyalar ostida qolib halok bo‘lishi esa asar konsepsiyasiga munosib badiiy yechimdir.

Qissaning yakunida otlar uyurida yuz bergan bir voqea ota tomonidan o‘g‘ilning turmush-tarziga solishtiriladiki, u orqali badiiy xulosasining ta’sirchanligi nihoyatda oshgan: “Odam-ku odam, dedi ota bamaylixotir, – hatto ot ham buzuqlikni kechirolmaydi. Minib kelgan mana shu oting boshqa uyurga ilakishib qaytgan baytalni tepkilab tashlaganini bilasanmi? Agar aralashmasam, baytalni o‘ldirardi. Baribir qornidagi bolasini tushurmay qo‘ymadi. Esingdami shu? – U bir hayvon-da, ota. – Hayvonki chiday olmabdi, men qanday toqat qilay, a?!” [9. B. 375]. Muallif Ernazar polvon timsolida jamiyatning axloqiy tubanlashuviga qarshi tura oladigan ma’naviy kuchni tasvirlaydi. N.Norqobilovning boshqa asarlarida ham polvon obrazi turli hayot materiallarida tasvirlanadi va ularda ham, asosan, epos alplarining sifatlarini o‘ziga meros qilib olgan xalq polvonlarining ma’naviy dunyosi, el ichida polvon nomiga munosib bo‘lishning mashaqqatlari badiiy talqin etiladi.

Qadim zamonlardan oddiy odamlarning orzu-umidi, kelajakka bo‘lgan ishonchi xalq qahramonlarining taqdiri bilan hamohang tarzda kuylab kelingan. Hozirgi o‘zbek nasrida turli hayot materiallarida talqin etilayotgan polvon obrazini ham alp-qahramonlarning davomchisi deyishimiz mumkin. Sababi ijodkor polvon obrazi orqali el orasida o‘z o‘rniga ega, hurmatga sazovor, boshqalarga o‘rnak bo‘la oladigan alohida tipni tasvirlaydi va ularning talqinda didaktik funksiya yetakchilik qiladi. Polvon obrazini yaratishda folklorga xos motivlar, an’analar ta’siri kuchli. Xalq o‘z qahramonlari, pahlavon va bahodirlarning buyuk ishlarni amalga oshirishlariga ishongan. Polvonlar xalq qahramonlari kabi olamshumul voqealarni amalga oshirmasalar ham, ular kabi mard, halol va oriyatli ekanliklari bilan odamlar orasida katta e’tiborga sazovor bo‘lgan.

O‘zbek nasrida polvon obrazining shakllanishi mifopoetik tahlil asosida ko‘rib chiqilganida, albatta, yuqoridagi o‘xshashliklardan boshqa ta’sirlanish izlari ham yuzaga chiqadi. Masalan, dev bilan bog‘liq tushunchalar yoki folklorga xos bo‘rttirish, mubolag‘a qilish o‘rinlari ham mavjud. Shuningdek, qahramonlik dostonlarida alpning o‘z elati taqdiri bilan bog‘liq ravishda “alplik

dardi”ga yo‘liqishi hamda polvonlarning el dardini his qilishi, uning ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rni “alplik tizimi”ning polvon obrazini yaratishdagi bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotla:

1. *Саид Аҳмад*. Уфқ. – Тошкент: Сано-сатандарт, 2016. – 640 б.
2. *Тоғай М*. Юлдузлар мангу ёнади. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 92 б.
3. *Йўлдош Ф*. (айтувчи) Алпомиш. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 400 б.
4. *Юсуф ўғли Р*. (айтувчи) Гўрўғли достонлари. – Тошкент: Ёзувчи, 1997.– 224 б.
5. *Жуманбулбул ўғли Э*. (айтувчи) Далли. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – 336 б.
6. *Айизов А.* Полвон йиғлаган тун. // Ёшлик, 2011. – №4. – Б. 13–24.
7. *Норқобилов Н*. Кураш. [Интернет манба]. URL: https://ziyouz.uz/ozbek–nasri/normurod-norqobilov/normurod-nor-obilov-kurash-ikoya/(Мурожат этилган сана: 11.04.2023)
8. *Турдимов Ш*. Этнос ва эпос. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012. – 96 б.
9. *Норқобилов Н*. Бекатдаги оқ уйча. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 328 б.
10. *Қуронов Д.* Адабий ўйлар. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2016. – 112 б.
11. *Қуронов Д*. Адабиёт назарияси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 480 б.
12. *Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М*. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – 400 б.
13. *Луқмон Б.* Қуёш ҳали ботмаган. // Ёшлик, 2015. – №2. – Б. 9–32.

FOLKLORE MOTIVES DEVELOPMENT IN CREATING THE IMAGE OF THE WRESTLER

Mahbuba J. Ismonalieva[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 5(73). 101-108.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: heroic qualities, plot motives, false motive, escape motive, image of Pir (mentor), alpine system (in Uzbek folk epics, the quality of a hero is characterized by unnatural strength, courage, courage and intelligence), alpine pain.

The national spirit and impressiveness of a work of art is related to the absorption of elements of folk oral creativity into it. Because folk art is an artistic reflection of what he or she has seen and experienced for thousands of years. This reflection naturally comes to life in the world of the creator, because he is the successor of this nation. The influence of folklore is also significant in the artistic interpretations of the image of the wrestler in our analysis, and the article is dedicated to highlighting this issue.

The main qualities of the famous heroes of folklore – bravery, courage, honesty of Alpomish, Gorogli, Rustam and other such wrestlers were the basis for determining the character traits of the image of the wrestler. Wrestlers have gained reputation among the people with these characteristics, and their wrestling is also organized on this basis.

Motives such as lie, abduction, trial, child rearing in the plot system of folklore works were processed depending on the fate of the hero and served as a perfect expression of the composition of the work. In this place, the motive of “lie” in T.Murod’s story “Stars burn forever” and motive of “escape” in S.Ahmad’s novel “Forty-five days” lead the system of plot events.

In folk epics, the character of Pir (mentor)

comes to the aid of the hero in his difficult days and gets him out of a difficult situation. This concept, which is related to religious-mythological imaginations, undergoes a formal change in the creation of the image of a wrestler, and is re-incarnated in the form of the hero's father or elder brother. For example, in the story "The sun has not yet set" by L. Borikhon, the hero's mentor, Absal considers the wrestler to be close to him, while in the story "Stars always burn" by T. Murad, the wrestler named Buri expects help from his father's spirit in the circle.

There are also women-fighting scenes in the works. This situation is mainly related to the weakening of the concepts of dignity and honor typical of wrestlers during the wrestling period and this situation can be called the exact appearance of the Barchin incident in the written literature, which was caused by Hakimbek's slow fight in the "Alpomish" epic.

"Alpine system" is the main criterion of heroic epics. The "alpine pain" in this system is caused by the role of the hero-alpine in the fate of his people and becoming his leader. In the interpretation of the image of a wrestler, his nationality, social-psychological and spiritual-spiritual influence on people around him is leading. The question of the spiritual and moral influence of the wrestler on society is found in all the works in our analysis. In N. Norqabilov's work "Rocks also cry", this issue is effectively expressed through the old wrestler's belief in values that can stand against moral corruption and shamelessness in society.

In the formation of the image of the wrestler, the influence of folklore characteristics and motives is strong, which is primarily explained by the fact that this image is the successor of the folk heroes, legendary wrestlers, and mythopoetic, sociological and comparative methods lead in revealing the characteristics of the image.

References:

1. Ahmad, S. (2016). *Ufq* [Horizon]. Tashkent: Sano-standart.

2. Murod, T. (1980). *Yulduzlar mangu yonadi* [The stars burn forever]. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

3. Yo`ldosh, F (teller). (1998). *Alpomish* [Alpomish]. Tashkent: Shark.

4. Yusuf o'g 'li, R. (teller). (1997). *Go'rog'li dostonlari* [Gorogli epics]. Tashkent: Yozuvchi.

5. Jumanbulbul o'g'li, E. (teller). (1972) *Dalli* [Dalli]. Tashkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.

6. Ayizov, A. (2011). Polvon yig'lagan tun [The night the wrestler cried]. *Yoshlik*. 4. Pp. 13-24

7. Norqobilov,N. (2013). Kurash [Wrestle]. (Online).URL: https://ziyouz.uz/ ozbek-nasri/normurod–norqobilov/ normurod-nor-obilov-kurash-ikoya/(Date of access: 11.04.2023)

8. Turdimov, Sh. (2012). *Etnos va epos* [Ethnos and epos]. Tashkent: Uzbekistan.

9. Norqobilov, N. (2000) *Bekatdagi oq uycha* [The white house at the station]. Tashkent: Shark.

10. Quronov, D. (2016). *Adabiy o'ylar* [Literary thoughts]. Tashkent: Turon zamin ziyo.

11. Quronov, D. (2018). *Adabiy nazariyasi asoslari* [Fundamentals of Literary Theory]. Tashkent: Akademnashr.

12. Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheraliyeva, M. (2010). *Adabiyotshunoslik lug'ati* [Dictionary of Literary Studies]. Tashkent: Akademnashr.

13. Luqmon, B. (2015). Quyosh hali botmagan [The sun has not set yet]. *Yoshli*k. 2. Pp. 9-32

Muallif haqida ma'lumot:

ISMONALIYEVA Mahbuba Jabarali qizi – Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: ismonaliyeva94@gmail.com